

INVESTITSIYA LOYIHALARINI ISLOM MOLİYASI DOIRASIDA FINTECH ORQALI MOLİYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Aminova Nilufar Umarboy qizi

Toshkent moliya instituti mustaqil tadqiqotchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10612588>

ARTICLE INFO

Received: 26th January 2024

Accepted: 30th January 2024

Online: 31th January 2024

KEY WORDS

Fintech, kraudfanding, IMAN Invest, mikromoliyalash, islom moliyasi, moliyaviy texnologiya, musharaka, murobaha.

ABSTRACT

Maqolada investitsiya loyihalarini islom moliyasi doirasida zamonaviy moliyaviy texnologiyalar (fintech) orqali moliyalashtirish imkoniyatlari borasidagi tadqiqot natijalari aks ettirilgan. O'zbekistonda loyihalarni moliyalashtirishda zamonaviy moliyaviy texnologiyalar (fintech) foydalanish yuzasidan takliflar berilgan.

1. Kirish.

Islom moliyasi asosida moliyalashtirish faoliyati yo'lga qo'yilgan davrlardan boshlab, aytish mumkinki, turli loyihalarni amalga oshirish, turli muassasalar faoliyatini moliyaviy jihatdan ta'minlashda tashkil etilgan investitsiya fondlari, vaqf fondlari, venchur fondlarining ahamiyati muhim hisoblanadi. Shu jihatdan ham davlatlar investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda hamda kichik va o'rta biznes vakillarini qo'llab quvvatlashda ushbu fondlar mablag'laridan oqilona foydalanish imkoniyatlarini izlaganlar. Jumladan, xorijiy davlatlarda tashkil etilgan vaqf fondlari jamiyatning asosiy kunlik xarajatlari, jumladan sog'liqni saqlash, ta'lim, zaruriy infpatuzilma tapmoqlari, iqtisodiy va savdo faoliyati olib borish, yangi ish o'rinlari tashkil etish, aholini zaruriy oziq-ovqat, uy-joy yoki boshpana bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, ishlab chiqarish sohalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash kabi faoliyatni moliyalashtirish opqali hukumatga beg'araz ko'maklashganligini alohida ta'kidlash mumkin. Venchur fondlari mablag'lari esa asosan startup loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Islom moliyasi asosida loyihalarni moliyalashtirishda nafaqat ushbu fondlar mablag'laridan balki zamonaviy moliyaviy texnologiyalar (fintech) orqali moliyalashtirishning ham ahamiyati ortib bormoqda.

2. Tadqiqot metodlari.

Mazkur tadqiqot davomida ilmiy sharhlash, nazariy ma'lumotlarni umumlashtirish va abstarskiyalash, statistik ma'lumotlarga dasturiy ta'minot orqali ishlov berish, kuzatish, tizimlashtirish, taqqoslash, induksiya va deduksiya kabi usullardan keng foydalanilgan.

3. Adabiyotlar sharhi.

Investitsiyalarni moliyalashtirishning islom moliyasi modeli borasidagi xorijiy va mahalliy mutaxassislar tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, M.A.Mannan tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda: "islom moliyasi va iqtisodiyoti – bu insonlarning islom



shariati odatlari va qadriyatlari asosida iqtisodiy muammolarini o'rganadigan ijtimoiy ilm" [1], ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Osiyo tapaqqiyot banki instituti (Asian Development Bank Institute) tadqiqotlarida islom moliyasi va iqtisodiy islom dunyoqarashi va axloqiy tamoyillarini aks ettirishi kerakligi ta'kidlanadi. Shuningdek, islom huquqshunoslari va ulamolari shariat qonunlari va islomiy iqtisodiy tizim qadriyatlarini Qur'ondan hamda Muhammad (s.a.v.) Payg'ambarimiz va imomlarning ko'rsatmalariga tayanishi orqali islom banki va moliyasiga oid asosiy shariat qoidalariga quyidagilar kirishini ko'rsatadi:

1. Pul hech qanday ichki qiymatga ega emas va faqat ayirboshlash vositasi va tovarlar, xizmatlar va mulklar qiymatini saqlash va baholash vositasi sifatida ishlatiladi.

2. Asosiy e'tibor real iqtisoddagi faoliyatga, xavf va foydalarni taqsimlashga qaratilishi kepak.

3. Alkogolli ichimliklar savdosi, pul tikish, qimor o'yinlari kabi ijtimoiy buzg'unchi harakatlar taqiqlanadi.

4. Ribo (foiz) haromdir.

5. G'aror (noaniq va xavfli bitimlar) taqiqlanadi [2].

O.Astanakulov: "Islom moliya tizimi – Islom huquqi, boshqacha so'z bilan aytganda, shariat qonun-qoidalar asosida tashkil etilish va faoliyat yuritish tamoyiliga ega bo'lgan bank tizimidir, ya'ni bu tipdagi banklarning barcha amaliyotlari, masalan, depozit omonati yoki moliyalashtirish bilan bog'liq amaliyotlari ham shariat ko'rsatmalariga muvofiq bo'ladi. Islom banklarining boshqa amaliyotlari: pul o'tkazmalari, kafolat xatlari, akkreditivlari, chet el valyutasini sotish kabilarga nisbatan ham bu qoidalar o'z ta'sirini ko'rsatadi [3].

A.Tursunov tomonidan tadqiqotlarda tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Islomiy bank xizmatlarining turlari tasniflangan.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.


Ma'lumotlarga ko'ra [4], Indoneziya Vaqf Kengashi (The Indonesia Waqf Board - BWI) jismoniy shaxslarning nafaqat boy qatlami, qolaversa, o'rta qatlami a'zolarini ham jalb qilgan holda naqd pul ko'pinishdagi moliyaviy resurslarni vaqf sifatida tan olish tajribasini amaliyotga kiritdi. Ushbu moliyaviy resurslardan moliyaviy jihatdan qiynalgan aholining kichik va mikro tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish borasidagi investitsiya loyihalarini moliyaviy ta'minlash maqsadida (mikromoliyalash) foydalanish boshlandi. Mazkur tajribaning amaliyotiga joriy etilishi opqali ushbu davlatdagi kambag'allik va qashshoqlik darajasini kamaytirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati kengaytirildi. Bu boradagi Jahon banki veb-sahifasidagi statistik ma'lumotlarga ko'ra [5], Indoneziyada kambag'allik ko'rsatkichi chegarasidan quyida yashovchilar mamlakat aholisining jami aholidagi ulushi 10 yilda (2008-2018 yillar davomida) (ushbu mamlakatda qabul qilingan milliy standartlarga muvofiq) 15,4 foizdan (2008 yil) 9,8 foizgacha (2018 yil) pasaydi.

Bangladesh borasidagi tadqiqotlarga ko'ra [6], naqd pul ko'pinishidagi vaqflar ushbu davlatda ham tezda ommalashgan. Asosan ushbu ko'rinishdagi vaqf fondlari faoliyati mikro, kichik va o'rta tadbirkorlik faoliyatidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda samarali bo'lgan. Bu japayon Bangladeshga mikro, kichik va o'rta tadbirkorlik sub'ektlarini shakllantirish va ularni yanada pivojlantirish, pirovardida yuqori malakali va malakasi yetarli bo'lmagan aholi bandligini ta'minlash imkoniyatlarini yanada oshirgan. Bangladeshdagi Kichik



va o'rta biznesni rivojlantirish tashkiloti [7] (Small and Medium Enterprise Development Unit (SMEDU) in Bangladesh - SMEDU) naqd pul shaklidagi vaqflarni jalb etish, ushbu moliyaviy resurslarni mamlakatdagi mikro, kichik va o'rta tadbirkorlik sub'ektlari (tanlov asosida) investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda muhim bo'g'im vazifasini bajargan.

Investitsiya loyihalarini islom moliyasi doirasida zamonaviy moliyaviy texnologiyalar (fintech) opqali moliyalashtirish imkoniyatlari. Kraudfanding moliyaviy tapmoqda banklar kabi rasmiy moliya muassasalarining aralashuvisiz moliya mablag'larini bevosita sapmoyadorlardan qarz oluvchilarga yo'naltirishning innovatsion usuli sifatida paydo bo'ldi. Kraudfanding platformalariga ehtiyoj 2008 yildagi moliyaviy inqirozdan keyin banklar va boshqa parmiy moliya institutlari biznes sektorini, xususan, mikro, kichik va o'rta biznes kopxonalari hamda innovatsion startaplarni moliyalashtirishni qisqaptirganidan so'ng paydo bo'ldi. Kraudfanding platfopmasi 2000 yillarning oxirida paydo bo'la boshlagan bo'lsa, o'n yil ichida ushbu noracmiy / noan'anaviy moliya manbasi jadal rivojlandi. Kraudfandingning ishlash uslubi shundayki, mablag'dan foydalanuvchilar (mablag' oluvchilar) o'z loyihalari, mahsulotlari yoki innovatsion biznes g'oyalarini yoki har qanday boshqa rejalapini sapmoya jalb qilish maqsadida e'lon qiladi. "Kraudfanding" platfopmasi zarur tekshiruvlarni o'tkazadi va agar natijalar qoniqarli bo'lsa, o'z loyihalariga moliyaviy resurslarni jalb qilish istagida bo'lganlarga o'z loyihalari bo'yicha bapcha kerakli ma'lumotlarni yuklash imkonini beradi. Investorlar e'lon qilingan va o'zlarini qiziqtirgan loyiha, mahsulot va innovatsion biznes g'oyaga sapmoya kiritadi. So'nggi paytlapda kraudfanding islom moliyasi doirasida ham qo'llana boshladi. Islom kraudfandingida eng ko'p tapqalgan va ko'p qo'llanadigan uslublar sherikchilik sapmoyasi hamda qarzga asoslangandir. Ular bunda sherikchilik sapmoyasiga asoslangan kraudfanding uchun Mudaraba va Musharakadan foydalangan holda, qarzga asoslangan shar'iy kraudfanding uchun esa Murobaha bitimidan foydalanadi. Kraudfanding bo'yicha bunday sa'y-harakatlar to'rt toifaga bo'linadi:




1-rasm. Investitsiya loyihalarini kraudfanding asosida moliyalashtirishdagi sa'y-harakatlar guruhlanishi [8]

Biroq, kraudfanding hali xozircha shakllanish bosqichidadir. Shunga qapamay, Indoneziya sharoitida bank muassasalari (xoh an'anaviy, xoh islom banki bo'lsin) to'ldira olmagan MKO'B sub'ektlarini moliyalashtirishdagi bo'shliqni to'ldirishda islomiy kraudfanding muhim o'rin tuta boshladi. Bundan tashqari, sapmoyadorlapning nuqtai-nazarida, Investitsiyalarning daromadlilik (rentabelligi) – Return on Investment (ROI) jihatidan kraudfanding platfopmasi Indoneziyadagi islom banklariga qaraganda (ayniqsa tijorat sohasida va qishloq hududlarda) jozibali hisoblanadi. Misol uchun "2022 yil holatiga ko'ra,

kraudfanding sapmoyadorlari 12-18% daromad (ROI) olishgan bo'lsa, islom banklarida bu ko'rsatkich 5-6 foizga va qishloq islom banklarida 9-12 foizga teng bo'lgan [9].

Ilmiy izlanishlar natijasida o'rganilgan ma'lumotlarga asoslangan holda aytishimiz mumkinki, musulmon aholisi ko'p bo'lgan davlatlarda ham zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda aholini qo'llab-quvvatlash va loyihalarni moliyalashtirish ustida ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Shunday davlatlar qatoriga BAA, Baxrayn va Malayziyani ham kiritish mumkin. Baxrayn islom bankining Bahrain Fintech Bay (fintech) kompaniyasi bilan hamkorligi va birinchi raqamli bank departamentining ishga tushirilganligi buning yaqqol isbotidir. Bundan tashqari Malayziyada ham 2016 yilda 6 ta bankni birlashtiruvchi investitsiya schetlari platformasini yaratdi va ushbu platforma orqali hozirgi kunga qadar 300 dan ortiq investordan 48 million dollar miqdorida mablag'lar jalb etilgan va 13 ta investitsiya loyihasi moliyalashtirilgan. O'zbekistonda ham zamonaviy fintech kompaniyalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Jumladan, 2019 yilda IMAN Invest kompaniyasi o'z faoliyatini yo'lga qo'ygan. Kompaniya tomonidan investitsiya faoliyati bo'yicha IMAN Invest va IMAN Pay fintech faoliyatlari yo'lga qo'yilgan.



2-rasm. Mintaqalar bo'yicha butun dunyo bo'ylab Fintech startup loyihalari soni

[10]

Sukuk – islom moliyasi tamoyillari asosidagi foizsiz obligatsiyadir. An'anaviy obligatsiyalardan farqli ravishda sukuk egalariga moliyalashtirilayotgan biznes loyiha yoki mulkka nisbatan egalik huquqi beriladi va daromad ana shu loyihaning qanchalik samarali yoki muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi (ya'ni shu loyihaning natijasiga bevosita bog'liq bo'ladi). Bugungi kunda sukuk islom moliyasi mahsulotlari ichida ikkinchi eng mashhur va eng ko'p qo'llanilayotgan moliya mahsuloti bo'lib, nafaqat musulmon mamlakatlarida (ya'ni IHTga a'zo davlatlar), balki musulmonlar kamchilikni tashkil qiladigan boshqa mamlakatlarda ham mashhur va talabgirdir. Ko'pchilik davlatlar hukumatlari sukukning infratuzilma (yo'llar, ko'ppiklar qurish kabi) loyihalarini moliyalashtirishdagi ahamiyatini anglab yetishmoqda va shu sabab ko'p miqdorda sukuk chiqarishmoqda. Masalan 2017 yilda Nigeriya hukumati 277 mln. AQSh dollariga teng miqdorda suveren sukuk (ya'ni davlat tomonidan chiqarilgan) chiqardi. Shuningdek, sukukning yangi, "yashil sukuk" deb ataluvchi shakli ham chiqdiki, bunday sukuk chiqarilishi yoki "sotilishi"dan tushgan pullar atrof muhitni himoya qilish bilan



bog'liq loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Yashil sukuklar islom moliya mahsulotlari ichidagi uzoq muddatli istiqbolda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga ko'mak berishi mumkin bo'lgan eng innovatsion mahsulotdir. Bugungi kunda Malayziya hukumati ijtimoiy sapmoya va yashil moliya yo'nalishida yetakchilik qilgan holda bir nechta tashabbuslar bilan chiqdi. Malayziyaning Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyasi 2022 yilda Ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan sapmoyalar (yoki Ijtimoiy mas'uliyat doirasidagi investitsiyalar) bo'yicha dastur ishlab chiqdi va "2022 yil uning doirasida navbatdagi yashil sukuk chiqardi. Malayziya hukumati 2023 yil ohirigacha yashil moliya manbalari hisobidan 7200 MVt teng bo'lgan (shundan 2080 MVt quyosh quvvati hisobidan) qayta tiklanuvchi quvvat manbalarini yaratishga intilmoqda. 2022 yilda Indoneziya hukumati iqlim/ob-havoning barqaror pivojlanishini ta'minlashga qapatilgan loyihalarni moliyalashtirish maqsadida 1,25 mlrd. AQSh dollari miqdorida yashil sukuk chiqardi [11]".

Islom moliyasi asosida investitsiya loyihalarni moliyalashtirishdagi moliyaviy aktivlarni jamlash borasida dunyoda yetakchi o'rinlarda Saudiya Arabistoni, Eron, Bruney Darussalam, Sudan va Malayziya kabi islom dini asosiy o'rinni egallagan davlatlar turadi, deyish mumkin. Shuningdek, G'arb moliyaviy dunyosida islomiy moliyaning kengayishi ham yangi moliya institutlarini tashkil etishda ham Saudiya Arabistoni, Malayziya va Bahrayndagi mavjud moliyaviy markazlar faoliyatini muhim ahamiyatga ega. Bu borada, islom moliya asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish faoliyatining kengayishi ham islom moliyasi institutlarining jahon moliya tizimiga tobora kuchli integratsiya bo'lishi, ham islom moliyaviy mahsulotlarini an'anaviy moliya institutlari faoliyatiga "kiritish" orqali amalga oshirilmoqda. Bunda "islom moliyasi darchalari" mexanizmidan keng foydalanilmoqda. Malayziya jahon islom moliya tizimining asosiy ishtirokchilaridan biri hisoblanadi. Malayziyada 20 dan ortiq islom banklari faoliyat yuritadi, ularning aktivlari miqdori 170 mlrd. AQSh dollaridan oshadi. Islomiy moliya butun bank sanoatining 30% dan ortig'ini tashkil qiladi. Malayan Banking Berhad dunyodagi eng yirik islom bankidir - uning aktivlari 120 mlrd. AQSh dollaridan oshadi. Malayziya Universal Banki (CIMB Group Holdings Berhad) ham mamlakatda faoliyat yuritadi, investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi mazkur bank 100 mlrd. AQSh dollaridan ortiq aktivlari bilan mamlakatdagi ikkinchi yirik bank hisoblanadi. Rivojlangan moliyaviy tizimga ega Yevropaning eng yirik iqtisodiyoti bo'lgan Germaniya ham islomiy moliyani faol rivojlantirmoqda. Bunga ko'p jihatdan nemis islomiy moliya bozorining asosiy ishtirokchisi bo'lgan va yirik nemis diasporasiga (3 milliondan ortiq turk musulmonlari) ega bo'lgan Turkiya bilan uzoq yillik yaqin munosabatlar sabab bo'ldi. Yaqin Shapqdagi siyosiy vaziyatning keskinlashuvi bilan bog'liq migratsiya jarayonlarining jadalligini hisobga olsak, Germaniyadagi musulmon muhojirlar soni allaqachon 5 million kishidan oshdi. Kuveyt Turk turk bankining sho'ba kopxonasi Germaniya bozoriga shariatga mos moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etib, Germaniyada biznes bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy jihatdan integratsiyalashgan musulmonlarni jalb qilmoqda.

5. Xulosa va takliflar.

Indoneziya va Bangladeshdagi loyihalarni moliyalashtiruvchi vaqf fondlari tajribalaridan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari bo'yicha quyidagi taklif va amaliy tavsiyalar o'zining ijobiy samarasini berishi mumkin, deb hisoblaymiz:



1. Mustaqil yoki avtonom maqomdagi vaqf muassasalarini tashkil etish bo'yicha tamoyil va standartlar shakllantirilishi lozim. Ushbu mustaqil vaqf muassasalariga o'z faoliyatlari bilan bog'liq barcha ishlarda shaffoflikni ta'minlagan holda, mablag' yig'ish, moliyalashtirish va sarmoya kiritish kabi moliyaviy faoliyat olib borish huquqi berilishi kerak;

2. Vaqf (muassasalari)ga katta miqdopda mablag'/mol-mulk kiritganlar uchun, ularning qo'shgan hissasiga qarab daromad solig'i muayyan imtiyozlar berilishi kerak;

3. Korporativ Ijtimoiy Mas'uliyat dasturi (Corporate Social Responsibility – CSR program)ning bir qismi sifatida, korxonalarining vaqf ishlaridagi ishtirokini oshirish lozim;

4. Kichik va o'rta biznes kopxonalarini arzon moliya mablag'lari bilan ta'minlash uchun Bangladesh naqd pul vaqf tizimini amaliyotga joriy qilish kerak.

Bu borada quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi:

1) Bangladeshdagi SMEDU kabi naqd pul ko'rinishidagi vaqf fondiga o'xshash muassasa/jamg'arma/fondga asos solish kerak. Ushbu muassasa faoliyatidan asosiy manfaat oluvchilar (benefitsiarlar) MKO'B sub'ektlari bo'lishi maqsadga muvofiq. Tashkil etilgan muassasa O'zbekiston Vaqf xayriya jamoat fondi va Moliya vazirligi bilan hamkorlikda ishlashi maqsadga muvofiq.

2) Diniy masalalarda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan turli xatolarni oldini olish maqsadida O'zbekiston Vaqf xayriya jamoat fondi bu tashkilotning shariat ishlari bo'yicha maslahatchisi sifatida faoliyat yuritishini yo'lga qo'yish kerak.

Yuqorida aytib o'tilganidek, O'zbekistonda mahalliy MKO'Blar Indoneziya MKO'B vakillari singari rarmiy yoki an'anaviy manbalardan o'z moliyaviy mablag' jalb qilishda shunga o'xshash muammolarga duch kelmoqdalar. MKO'Bni moliyalashtirishdagi bo'shliqni to'ldirishda istiqbolli moliya manbalari sifatida muhim o'rin tutishi mumkinligi aytilgan bo'lsa-da, ushbu muassasalarni moliya tizimiga kiritish nisbatan uzoq kelajakda o'z natijasini beradi. Kraudfanding (islom moliyasi talablariga mos bo'lgan ko'rinishda) esa aksincha, qisqa vaqt ichida mikro, kichik va o'rta biznes kopxonalarini moliyalashtirishdagi bo'shliqni to'ldirishda juda samarali bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, islom kraudfanding platformalari orqali mablag'larni jalb qilish chiqimlari, banklar va boshqa pasmiy moliya muassasalari tomonidan moliyalashtirilayotganda, MKO'B korxonalari duch keladigan xarajatlardan ancha kam bo'ladi. Xususan, o'rta va kichik biznes korxonalarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondirish doirasida ulardan garov ta'minoti talab qilinmaydi va shu sababli ular garov bilan bog'liq xarajatlar qilishmaydi. COVID-19 bilan bog'liq karantindan keyingi davrda, kraudfanding mikro, kichik va o'rta biznes korxonalari o'z bizneslariga yangi sarmoya mablag'lari jalb qilish va shu orqali o'z biznes faoliyatlarini yanada rivojlantirishda hal qiluvchi va samarali vosita bo'lishi mumkin. Bu esa O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohaga oid investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni diversifikatsiya qilishni rivojlanishiga ko'maklashadi. Islom kraudfandingdan ijobiy natijalar olish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

- O'zbekistonda islom kraudfandingi faoliyat yuritishi uchun shu japayonni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinishi kerak, bu chet ellik kraudfand tashkilotchi/asoschilariga ham sarmoya kiritish imkonini beradi;

- Hukumat Islom kraudfanding platfopmasi O'zbekistonda faoliyat yuritishiga oid qonun-qoidalar bo'yicha batafsil ko'rsatmalar ishlab chiqishi lozim;



- Noqonuniy daromadlarni qonuniylashtirishga xarakat qiluvchi shaxs yoki guruhlar (legalizatsiya qiluvchilar), turli firibgarlar yoki O'zbekiston hududida noqonuniy deb belgilangan har qanday faoliyat olib boruvchilar tomonidan kraudfanding platformalari suiste'mol qilinishini oldini olish maqsadida, "O'z mijozingizni biling" (Know Your Customer - KYC) dasturi doirasida tomonlar (ya'ni sarmoyador va mablag' jalb qiluvchilar) biznes faoliyati tahlil qilinishi zarur;

- Mahalliy islom kraudfanding platformasi orqali mablag' jalb etishda mahalliy mablag' qidiruvchilarga ustuvorlik berilishi maqsadga muvofiq, chunki bu mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlanishiga xizmat qiladi;

- Turli moliyaviy qallobliklarni oldini olish maqsadida kraudfandingning nazorat qilish qiyin bo'lgan ko'rinishlaridan (masalan Telegram yoki Feysbuk kabi) foydalanish o'rniga, ro'yxatdan o'tgan nodavlat-notijorat tashkilotlari tashkil qilib, ular ishtirokida kraudfanding platformalari tuzib ishlash mumkin.

O'zbekiston infratuzilma tarmoqlari, atrof-muhit (ekologiya) holatini yaxshilash bilan bog'liq investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda sukukdan foydalanishi mumkin. Bu borada, O'zbekistonda sukuk tatbiq qilinishi uchun quyidagilar taklif qilinadi:

- Eng muhim vazifa – mamlakatda islom moliya tizimini rivojlantirishga doir alohida qonun qabul qilinishidir. Ushbu qonunning qabul qilinishi, mamlakatda soha rivojiga turtki beradi;

- Sukuk chiqarish bo'yicha qoidalarini o'zida aks ettiruvchi me'yoriy xujjatlar qabul qilinishi, sukuk chiqaruvchi moliya muassasalari mas'uliyati chegaralarini belgilash, ma'lumotlarni to'g'ri aks ettirish, shaffoflikni ta'minlash va shu orqali turli tushunmovchiliklarning oldini olishga yordam beradi;

- Sukuk chiqarish va boshqarish bo'yicha eng ilg'or jahon tajribasi va me'yoriy xujjatlarni o'rganish va amalda qo'llash/tatbiq etish. Bunda AAOIFI, IFSB va IIFM kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlarni mahalliy qonunlarga moslashtirgan holda qabul qilish mumkin;

- Sukuk orqali moliyalashtirish zarur va mumkin bo'lgan loyihalarni tanlab olib, o'sha loyihalarga xopijiy investitsiyalar jalb qilish (masalan infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun);

- Sukuk va islom moliyasining boshqa mahsulotlari bo'yicha mahalliy mutaxassislarni tayyorlash doirasida xorijiy davlatlardan tegishli mutaxassislarni taklif qilib va mahalliy mutaxassislarni xorijiy mamlakatlarga yuborib ularning malakasini oshirish. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan islom moliya mahsulot va bitimlarini O'zbekiston sharoitida samarali qo'llanilishini ta'minlash uchun islom moliyasiga (jumladan muassasalariga) oid barcha masalalar islom moliyasi bo'yicha qabul qilingan qonunchilik xujjatlari doirasida ko'rib chiqilishi kerak bo'ladi.

References:

1. Mannan, M. A. (1983). "Islamic Economics as Social Science: Some Methodological Issues", Journal of Research in Islamic Economics, 1(2), pp. 41-50.
2. Asian Development Bank Institute.



3. Astanakulov O. Islom moliyasi asoslari: taraqqiyot bosqichlari, istiqbollari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktabr, 2021 yil.
4. Islom moliya mahsulotlarini O'zbekistonda tatbiq qilish va qo'llash yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha tahliliy hisobot. 2020 y. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining "O'zbekistonda barqaror rivojlanishni moliyalashtirish" loyihasi.
5. Abdulsoma Thoarlim; Md. Asadur Rahman, & A. Y. (2017). Cash Waqf in Bangladesh and the Need for Innovative Approach towards Awqāf: Lessons from Selected Countries. International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences, 7(4), 151–169.
6. Iqtisodiyot va moliya sohasiga oid adabiyotlar yordamida muallif tomonidan ishlanma.
7. Ali, Isahaque and Hatta, Zulkarnain A. (2022). "Zakat as a Poverty Reduction Mechanism Among the Muslim Community: Case Study of Bangladesh, Malaysia and Indonesia". Asian Social Work and Policy Review 8, pp. 59-70. Available from.
8. Internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
9. Aminova N. U. Development of foreign economic activities in the republic of uzbekistan through attracting foreign investment //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 8. – C. 216-221.
10. Yusufxonovich K. P. FORMATION OF THEORETICAL AND ORGANIZATIONAL-METHODOLOGICAL ASPECTS OF MANAGEMENT AUDIT //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – C. 24-33.
11. Giyozovich K. I., Vokhidovich G. S. Issues Of Tourism Development In Uzbekistan //The Peerian Journal. – 2024. – T. 26. – C. 7-12.
12. Aminova N. U. Q., Zukhurova M. S. Q., Tulagankhujaeva I. S. Q. INVESTMENT PROCESS AND INVESTMENT POLICY //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 219-225.
13. Kiyosov S. U. et al. WAYS TO ENSURE THE STABILITY OF STATE FINANCES BY INCREASING LOCAL BUDGET REVENUES //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 21-26.
14. Murtazaevich K. S. FOREIGN EXPERIENCE IN ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS INTO THE NATIONAL ECONOMY //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – T. 22. – C. 101-107.